

mamlakatda turizmni barqaror rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.A.Mirzayev, M.T.Aliyeva “Turizm asoslari” darslik O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti – T.: 2011. – 288b.
2. Yig‘ma-axborot ishlari boshqarmasi. // O‘zbekistonda turizm 2016-2019. Toshkent – 2020. №2398.
3. Yig‘ma-axborot ishlari boshqarmasi. // O‘zbekistonda turizm 2020-2023.
4. A.M.Abduvohidov, M.X.Yo‘ldoshev “Turizm iqtisodiyoti” darslik – TDIU, 2011 y. – 128 b.
5. World Travel and Tourism Council (2020), “Global Economic Prospects, June 2020”, Washington D.C, available at: <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>
6. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Shonazar ERMAMATOV,
Menejment va kelajak texnologiyalari universiteti (UMFT),
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

O‘ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANTISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston turizm industriyasining 2010-2024-yillardagi rivojlanish tendensiyalari va bosqichlari tahlil qilingan. Muallif sohaning institusional islohotlari, viza rejimining liberallashtirilishi va infratuzilmani modernizatsiya qilishning turizm daromadlari hamda turistlar oqimiga ta’sirini o‘rgangan. Maqolada turizm sektorining milliy iqtisodiyotdagi roli, sohani diversifikatsiya qilish va barqaror turizm tamoyillarini joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** turizm industriyasi, turistik oqim, viza liberallashtirilishi, turistik mahsulot, barqaror turizm, iqtisodiy o‘shish, turistik infratuzilma.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются тенденции и этапы развития туристической индустрии Узбекистана в период 2010-2024 гг. Автор исследует влияние институциональных реформ, либерализации визового режима и модернизации инфраструктуры на доходы от туризма и поток туристов. Особое внимание в статье уделяется роли туристического сектора в национальной экономике, вопросам диверсификации отрасли и внедрению принципов устойчивого туризма.*


***Ключевые слова:** индустрия туризма, туристический поток, либерализация визового режима, туристический продукт, устойчивый туризм, экономический рост, туристическая инфраструктура.*

***Abstract.** This article analyzes the trends and development stages of the tourism industry in Uzbekistan between 2010 and 2024. The author explores the impact of institutional reforms, visa liberalization, and infrastructure modernization on tourism revenues and tourist flows. Special attention is paid to the role of the tourism sector in the national economy, issues of industry diversification, and the implementation of sustainable tourism principles.*

Keywords: *tourism industry, tourist flow, visa liberalization, tourism product, sustainable tourism, economic growth, tourism infrastructure.*

O‘zbekistonda turistik sektor rivojlanishi mamlakatning boy tarixiy o‘tmishini aks ettiruvchi madaniy obyektlar va tabiiy-iqlim sharoitlarning xilma-xilligiga asoslanadi. Respublikada 9600 dan ortiq madaniy diqqatga sazovor joylar mavjud bo‘lib, ulaming 7000 dan ziyodi qadimiy me‘moriy inshootlar va arxeologik topilmalardir, shu bilan birga 209 ta yodgorlik YUNESKO talqiniga ko‘ra jahon merosi obyektlari maqomiga ega [1].

Ushbu madaniy boyliklarning asosiy qismi yettita asosiy tarixiy shaharga to‘g‘ri keladi: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo‘qon va Toshkent. O‘zbekistonning 11 ta milliy bog‘, 12 ta qo‘riqxon va 106 ta muzeydan tashkil topgan boy resurs tarmog‘i turizm industriyasini diversifikatsiyalangan holda rivojlantirish hamda raqobatbardosh turistik mahsulotlar yaratish uchun mustahkam poydevor hisoblanadi. Turizm sektorining qiyosiy ustunliklari milliy iqtisodiy o‘shishning “lokotivi” bo‘la oladigan zamonaviy modelni shakllantirish uchun keng ko‘lamli tarkibiy o‘zgarishlarni taqozo etmoqda. Tahlillar sohadagi joriy o‘shish tendensiyalari madaniy-tarixiy resurslarni monetizatsiya qilish samaradorligi oshganidan dalolat beradi.



1-rasm. O‘zbekistonga kelgan xorijiy turistlar soni va turizmdan olingan daromadlar dinamikasi [3]

1-rasm ma’lumotlari 2010-2024-yillar davomida O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlar soni va turizmdan olinayotgan daromadlar miqdori sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatadi [2]. Ushbu ma’lumotlarning o‘zgarish xarakteriga ko‘ra, O‘zbekistonda xalqaro turizm rivojlanishining tahlil qilinayotgan davrini 4 bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich, 2010-2016-yillarni o‘z ichiga qamrab olib, stagnatsiya holati bilan tavsiflanadi. Birinchi bosqichda turizmdan tushgan daromadlar 0,3 dan 0,6

mlrd. dollargacha, xorijiy turistlar soni esa 1 million kishidan 2 mln. kishigacha o'sgan. Rivojlanishning birinchi bosqichining o'ziga xosligi – turistlar soni nisbatan barqaror bo'lgan holda daromadlarning pastligi, turistik sohaning tizimli rivojlanishi yo'qligi va har bir turistga to'g'ri keladigan daromadning pastligidir.

2017-yildan O'zbekistonda turizm rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi, u turistik oqim va xalqaro turizmdan tushadigan daromadlarning sezilarli o'sishi bilan xarakterlanadi. Xususan, 2017-2019-yillar davomida turizmdan tushgan daromadlar 0,7 dan 1,5 mlrd. dollargacha, ya'ni 2 baravardan ko'proqqa oshdi. Shu vaqt ichida O'zbekistonga kelgan xorijiy turistlar soni 2,7 dan 6,7 mln. kishigacha (2,5 baravar o'sish) ko'paydi.

Ikkinchi bosqich, turistik siyosatning liberallasuvi boshlanishi, soddalashtirilgan viza rejimining joriy etilishi va faol xalqaro promo-aksiyalar bilan ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasidagi keng ko'lamli islohotlar va viza rejimining liberallasuvi turizm sohasining rivojlanishiga katta va sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 2017-2019-yillar davomida turizmni kompleks rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qonunchilik aktlari qabul qilindi, turizm industriyasini boshqarishning yaxlit institutsional tizimi shakllantirildi, hududlarning ulkan turistik salohiyatidan samarali va oqilona foydalanish uchun mamlakatning barcha mintaqalarida turizmni boshqarishning ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalari tashkil etildi. Turistik xizmatlarni sertifikatlash markazi, Davlat qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish instituti, mamlakatning turistik imijini targ'ib qilish bo'yicha Milliy PR-markaz kabi yangi profil tashkilotlari ham turizm industriyasining rivojlanishiga faol ko'maklashdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4095-sonli qarorining qabul qilinishi turizmni intensiv rivojlantirish, bozor ishtirokchilari uchun qulay iqtisodiy rag'batlar va tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish asosida milliy turistik mahsulotni yaratish va jahon bozorlarida faol targ'ib qilish uchun kuchli turtki bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, dunyoning 90 ta davlati fuqarolari uchun (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari uchun amaldagi ikki tomonlama vizasiz rejimdan tashqari) 30 kunlik va 60 kunlik soddalashtirilgan vizasiz rejim o'rnatildi. Keyinchalik Prezidentning 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni bilan 2019-yil 1-fevraldan boshlab 45 ta davlat fuqarolari uchun 30 kunlik muddatga vizasiz rejim joriy etildi, Prezidentning 2019-yil 18-martdagi PF-5691-sonli Farmoniga binoan Birlashgan Arab Amirliklari fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejim o'rnatildi, Prezidentning 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-sonli Farmoni bilan esa qo'shimcha 20 ta davlat fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejim joriy qilindi.

Maksimal darajada soddalashtirilgan tartibda elektron turistik vizani rasmiylashtirish "e-visa.gov.uz" rasmiy portali orqali 2018-yil 15-iyuldan boshlab dunyoning 57 ta davlati fuqarolari uchun elektron kirish vizalarini berishning innovatsion tizimi orqali ishga tushirildi. Ushbu ro'yxatdagi davlatlarning xorijiy fuqarolari konsullik muassasalariga shaxsan murojaat qilmasdan, atigi ikki ish kuni ichida 30 kunlik muddatga elektron vizani tezkorlik bilan olishlari mumkin.

Bundan tashqari, Buyuk Ipak yo‘li mamlakatlarining turistik salohiyatini hamda istiqbolli mintaqaviy turistik mahsulotlar va yo‘nalishlarni xalqaro bozorlarda samarali targ‘ib qilish uchun “Silk Road Project” maxsus xalqaro platformasi yaratildi.

Uchinchi bosqich, 2020-2021-yillarni qamrab oladi. Chegaralarning yopilishi va sayohatlarga qo‘yilgan cheklovlar, COVID-19 pandemiyasi natijasida sohaning yangi sharoitlarga moslashish zarurati xorijiy turistlar sonining ham, turizmdan tushgan daromadlarning ham keskin kamayishiga olib keldi. Shunday qilib, 2020-yilda turizmdan tushgan daromadlar 0,3 mlrd. dollargacha (80% ga pasayish) va xorijiy turistlar soni 1,5 mln. kishigacha (78% ga pasayish) keskin tushib ketdi, so‘ngra 2021-yilda bir oz o‘ydi, ammo pandemiyadan oldingi darajadan ancha pastligicha qoldi.

2022-yildan turizm rivojlanishining to‘rtinchi bosqichi boshlandi va turistlar soni ham, turizmdan tushgan daromadlar ham yana o‘sa boshladi. 2022-yilda xorijiy turistlar soni 5,2 mln. kishiga, 2023-yilda 6,6 mln. kishiga va 2024-yilda 10 mln. kishiga yetdi. Xorijiy turistlar soni bilan parallel ravishda turizmdan tushgan daromadlar ham o‘sa boshladi va 2024-yilda tarixiy maksimal ko‘rsatkich – 3,2 mlrd. dollarga yetdi.

To‘rtinchi bosqich, pandemiyaga oid cheklovlarning olib tashlanishi, sayohatlarga bo‘lgan kechiktirilgan talab effekti hamda turistik infratuzilmaga investitsiyalar va islohotlarning davom etishi bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda turizm rivojlanishining tahlili va davriylashtirilishi bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon berdi:

- 2017-2019-yillar davri turistlarni jalb qilishda yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi, ammo daromadlilik sekinroq o‘ydi;

- pandemiyadan keyingi tezkor tiklanish mamlakat turistik salohiyatining mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi;

- pandemiyadan oldingi davrda (2019-y) bir turistga tushadigan daromad taxminan 224 dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda – 320 dollar, bu xizmatlar sifatining oshganidan dalolat beradi;

- 2024-yildagi 10 mln. turist – pandemiyadan oldingi darajadan 1,5 baravar oshgan tarixiy maksimumdir;

- turistlar soni sezilarli darajada oshganida daromadlar mutanosib ravishda o‘smoqda, bu turistik oqimning barqaror monetizatsiyasidan dalolat beradi.

Ta’kidlash joizki, 2017-2019-yillarda turistlar soni daromadlardan tezroq o‘sgan, bu bizning fikrimizcha, budjetli turizmning rivojlanishi, turistlarning qisqa muddat qolishi, tranzit turizmi hamda infratuzilma rivojlanishining boshlang‘ich bosqichi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2021-2024-yillarda esa xorijiy turistlar soni va turizmdan tushgan daromadlarning sinxron o‘shishi, turistik xizmatlar sifatining yaxshilanishi, “miqdor-daromadlilik” nisbatining optimallasuvi kuzatilmoqda.

2024-yilda turizm sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks amaliy ishlar olib borildi. O‘tgan 2024-yil davomida mamlakatga turistik va boshqa maqsadlarda jami 10,0 mln. nafar xorijiy turist tashrif buyurdi, ularga ko‘rsatilgan turistik xizmatlar eksporti esa 3,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Ushbu

ko'rsatkichlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 baravarga o'sdi. Shu bilan birga, yaqin xorij davlatlaridan kelgan turistlar soni 2023-yilga nisbatan 1,6 baravarga, boshqa MDH davlatlaridan – 23,7% ga, uzoq xorijdan esa – 1,5 baravarga oshgani qayd etildi.

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida hududlar aholisi tomonidan 22,7 mln. tashrif amalga oshirildi. Ijtimoiy yordam sifatida 18,1 mingga yaqin imkoniyati cheklangan shaxslar va 6,3 mln. yoshlar uchun sayohatlar tashkil etildi. Turizm va turdosh sohalarda 51,0 mingga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi. Bundan tashqari, hududlarda 124 ta yangi mehmonxona (yangi o‘rinlar soni – 6,4 ming) va 239 ta xostel (yangi o‘rinlar soni – 7,6 ming) faoliyati yo‘lga qo‘yildi, natijada joylashtirish obyektlarining umumiy soni 6,1 mingdan, ulardagi o‘rinlar soni esa 161 mingdan oshdi. 352 ta oilaviy mehmon uylari tashkil etildi (yangi o‘rinlar soni – 3,2 ming), ularning umumiy soni 3 752 taga, o‘rinlar soni esa 33,5 mingtaga yetdi.

Turistlarga xizmat ko‘rsatish uchun 866 ta yangi turistik tashkilot va turoperatorlar tashkil etilishi natijasida ularning umumiy soni 3686 taga yetdi. Respublikada 3200 nafar gid-ekskursiyachi ishlamoqda, joriy yilda esa 700 nafar yangi mutaxassis tayyorlanadi.

2024-yilda O‘zbekistonning milliy turistik stendi dunyoning 19 ta yetakchi davlatida bo‘lib o‘tgan 22 ta xalqaro yarmarkada namoyish etildi. 12 ta xorijiy davlatda “Road show”, madaniy va taqdimot tadbirlari o‘tkazildi. Yaponiya, Germaniya, Xitoy va AQSHda O‘zbekiston turistik brendining elchilari va vakillari tayinlandi.

2024-yil 21–23-noyabr kunlari O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasi turizm industriyasining eng yirik tadbiri – “Ipak yo‘lidagi turizm” Toshkent xalqaro turistik yarmarkasi bo‘lib o‘tdi, uning maqsadi mamlakatimizning ulkan turistik salohiyatini namoyish etishdan iborat. Yarmarkaga 20 mingdan ortiq kishi tashrif buyurdi va ular O‘zbekiston Respublikasining 14 ta hududidagi yangi yo‘nalishlarning turistik salohiyatini baholash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bundan tashqari, yarmarka doirasida "B2B" uchrashuvlari tashkil etilib, unda 20 mingdan ortiq muzokaralar o‘tkazildi va 8 mingdan ortiq kelishuvlar imzolandi.

2024-yilda 591 ta loyiha amalga oshirildi, natijada 19428 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Toshkentda yuqori nufuzli Azimut, Bentley, Bill Wyndham & Co brendlari mehmonxonalarini ochildi, Termizda 4 yulduzli “Hilton Garden Inn Termez Airitom”, Navoiyda – “Dedeman Hotel”, Samarqand turistik markazida esa “Hilton Samarkand Regency”, “Hilton Garden Inn Samarkand Sogd” va “Intercontinental” brendlari ostidagi mehmonxonalar ochildi.

2024-yil 25-26-aprel kunlari “Shahrisabz – Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining turistik poytaxti” xalqaro forumi bo‘lib o‘tdi, 31-maydan 2-iyungacha esa Xivada “Xiva – Islom dunyosining 2024-yildagi turistik poytaxti” shiori ostida Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar turizm vazirlarining XII yig‘ilishi o‘tkazildi.

Ta’kidlash lozimki, 2024-yilda mahalliy ommaviy axborot vositalari turizm sohasidagi o‘zgarishlar va amalga oshirilayotgan islohotlar haqida 3,4 mingga yaqin materiallar e’lon qildi. Xorijiy OAV bilan hamkorlikda chet el nashrlarida 1000 dan ortiq materiallar chop etildi. Yil davomida 20 dan ortiq davlatdan kelgan 100 dan

ortiq xorijiy OAV vakillari, blogerlar va influencerslar uchun O‘zbekiston bo‘ylab 26 ta info- va press-turlar tashkil etildi. Butunjahon turizm tashkiloti O‘zbekistonni turistik xizmatlar daromadi (eksport) bo‘yicha dunyodagi ikkinchi eng yaxshi yo‘nalish deb tan oldi.

Butunjahon iqtisodiy forumi tomonidan e‘lon qilingan “Turizm va sayohatlarni rivojlantirish indeksi” tadqiqotiga ko‘ra, O‘zbekiston 2024-yilda turizmni rivojlantirish sohasida dunyodagi eng faol davlat deb tan olindi. Ushbu e‘tirof mamlakatga xalqaro turistlarni jalb qilish va barqaror turizmni rivojlantirishga qaratilgan e‘tibor ortib borayotganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, Londondagi marosimda O‘zbekiston nufuzli “Wanderlust Reader Travel Awards 2024” mukofotining “Eng yaxshi rivojlanayotgan yo‘nalish” kategoriyasida g‘olib bo‘ldi. Rossiyaning “Russian Traveler” jurnali tomonidan o‘tkazilgan milliy turistik mukofot tanlovi natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston 2024-yilda “MDH davlatlari orasida eng yaxshi turistik yo‘nalish” deb topildi. Rossiyalik ekspertlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yangi yil sayohatlari uchun band qilingan aviachiptalar soni bo‘yicha O‘zbekiston Turkiyani ortda qoldirib, ommaboplik bo‘yicha ikkinchi yo‘nalishga aylandi. Bunda aviachiptalarga bo‘lgan talab 2023-yilga nisbatan 126% ga oshdi. Shuningdek, Abu-Dabida (BAA) “Trip.com” xalqaro onlayn platformasi ko‘magida o‘tgan “Global Travel” forumida Turizm qo‘mitasi “Eng yaxshi hamkor” va “Eng yaxshi turistik yo‘nalish” nominatsiyalarida g‘olib deb topildi.

O‘zbekiston turistik sohani iqtisodiy o‘shish va xalqaro hamkorlik uchun muhim sektor sifatida ko‘rib, unga faol investitsiya kiritmoqda. Investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlari infratuzilmani rivojlantirish, ziyorat turizmi loyihalariga sarmoya kiritish va uni targ‘ib qilishni o‘z ichiga oladi [5]. 2021-yil fevral oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev turistik infratuzilmani rivojlantirishga 100 million dollar ajratdi, bu mablag‘lar yangi mehmonxonalar qurish va mavjud obyektlarni yaxshilashga yo‘naltirildi. 2023-yilda Samarqandda yiliga 2 milliongacha turistni qabul qilish imkoniyatiga ega, mehmonxonalar, kongress-markaz va madaniy obyektlarni o‘z ichiga olgan “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turistik markazi ochildi.

O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan barqaror turizmni faol rivojlantirmoqda, turizmning atrof-muhitga salbiy ta‘sirini minimallashtirishga va mahalliy jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashishga intilmoqda.

Mamlakat hukumati madaniy merosni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni, jumladan, an‘anaviy usullar va materiallardan foydalangan holda tarixiy yodgorliklarni restavratsiya va rekonstruksiya qilishni amalga oshirmoqda. Shuningdek, madaniy merosni muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlari o‘tkazilmoqda hamda mahalliy aholini madaniy merosni saqlash va ommallashtirish jarayonlariga jalb qilinmoqda.

Muhim yo‘nalishlardan biri ekologik barqarorlik bo‘lib, u turistik sektorda “yashil iqtisodiyot” tamoyillaridan foydalanishni, ekoturizmni rivojlantirishni va turistlarning atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish muhimligi haqidagi xabardorligini oshirishni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratish,

turizm sohasidagi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, turizmdan tushadigan daromadlarni adolatli taqsimlash orqali qo'llab-quvvatlanmoqda.

Infratuzilmani rivojlantirish asosiy rol o'ynaydi, bu barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda yo'llar, ko'priklar, kommunikatsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilishni, turistlarning yashashi va dam olishi uchun qulay sharoitlar yaratishni, shuningdek, ekologik toza transport turlaridan foydalanishni rag'batlantiruvchi jamoat transporti tizimini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Barqaror turizmni amalga oshirish misollari ekomehmonxonalar tashkil etish va ekomarshrutlarni rivojlantirishni, shuningdek, hunarmandchilik markazlarini tashkil etish va hunarmandchilik san'ati bo'yicha mahorat darslarini o'tkazish orqali hunarmandlarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish madaniy va tabiiy merosni saqlash, mahalliy aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatning xalqaro maydondagi imijini yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://invest.gov.uz/ru/investor/tourism/>
2. Obidjon Xamidov. Tourism Sector in Uzbekistan and its Growth Prospects. International congress on Eurasian economies 2023. pp.401-404
3. <https://www.unwto.org/tourism-data/global-and-regional-tourism-performance>
4. <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection>
5. Khusniddin Egamnazarov. Evaluating the Path Towards Sustainable Tourism Development in the Republic of Uzbekistan, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, № 10-son, 2023-yil, 102-105 bb.

*Sarvarbek MIRZAYEV,
"University of Economics and Pedagogy NOTM",
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD*

O'ZBEKISTONDA TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANISH OMILLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirishning asosiy omillari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot davomida turizm infratuzilmasining rivojlanishi, tarixiy-madaniy merosdan samarali foydalanish, vizasiz rejimning joriy etilishi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim yo'nalishlar o'rganildi. Statistik ma'lumotlar asosida 2021–2025-yillarda turistlar oqimi va turizm daromadlarining sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Shu bilan birga, hududiy nomutanosiblik, xizmatlar sifati va malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar mavjudligi qayd etildi. Tadqiqot natijalari turizmni yanada rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va hududiy salohiyatdan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** turizm, infratuzilma, investitsiya, marketing, rivojlanish.*

***Аннотация.** В данной статье комплексно проанализированы основные факторы развития туристической деятельности в Узбекистане. В ходе исследования рассмотрены*